XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# XORAZM VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

## 2023- YIL YANVAR-IYUL



*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol xarajatlarini kaiyultiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**
**6 854,2 mlrd so‘m**

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi**
**68,3 %**

**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**
**3 488,1 ming so‘m**

**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik hajmining ulushi**
**60,7 %**

**Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati**
**108,7 %**

**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati**
**106,8 %**



*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar-iyul oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 854,2** mlrd so‘mga yetib, taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati **108,7 %**ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari
*(2023- yil yanvar-iyul oylarida)*



*2023- yil yanvar-iyul*

*Dastlabki ma’lumotlar*

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari *(2023- yil yanvar-iyul oylarida)* | Hajmi, mlrd so‘m | 2022- yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %da |
|---|---|---|
| Xizmatlar - jami | 6 854,2 | 108,7 |
| *shu jumladan:* | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 380,5 | 124,8 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 572,6 | 124,0 |
| Transport xizmatlari | 1 501,5 | 102,7 |
| *shu jumladan:* avtotransport xizmatlari | 1 404,5 | 101,4 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 221,7 | 102,6 |
| Savdo xizmatlari | 1 601,0 | 103,4 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 167,6 | 105,6 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 350,7 | 100,1 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 153,5 | 110,1 |
| Ijara xizmatlari | 112,0 | 92,5 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 277,4 | 106,1 |
| Shaxsiy xizmatlar | 246,8 | 104,9 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 106,4 | 101,1 |
| Boshqa xizmatlar | 162,5 | 108,3 |

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning tarkibi

## Nisbatan yuqori ko‘rsatkich

| Xizmat turi | Ulushi |
|---|---|
| Savdo xizmatlari | 23,4 % |
| Moliyaviy xizmatlar | 22,9 % |
| Transport xizmatlari | 21,9 % |
| Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari | 5,6 % |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 5,1 % |
| Kompyuterlarni ta’mirlash xizmatlari | 4,0 % |
| Shaxsiy xizmatlar | 3,6 % |

## Nisbatan past ko‘rsatkich

| Xizmat turi | Ulushi |
|---|---|
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 3,2 % |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 2,5 % |
| Boshqa xizmatlar | 2,4 % |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 2,2 % |
| Ijara xizmatlari | 1,6 % |
| Me’morchilik sohasidagi xizmatlar | 1,6 % |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2023- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **23,4** %ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **4,0** %ga yetgan.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiy hajmda **24,3** %ni tashkil etgan. 2022-yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **4,0** %.

2023- yil yanvar-iyul oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**124,0** %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**124,8** %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**110,1** %) va boshqa xizmatlar (**108,3** %)da qayd etildi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida boshqa xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (138,0 %), moliyaviy xizmatlarda (125,0 %) o'sish kuzatilgan.

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma'lumotlar*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da



*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga o‘tishini ta’minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma’lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste’molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.

2023- yil yanvar-iyul oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **23,4** %ni tashkil etdi, bu esa **1 601,0** mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1 396,5** mlrd so‘mga yoki umumiy hajmning **24,3** % ga to‘g‘ri kelgan.

## Savdo xizmatlari

**2022- y. yanvar-iyul**
**Xizmatlar hajmi**
**1 396,5 mlrd so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**106,8 %**

**Ulushi**
**24,3 %**




**2023- y. yanvar-iyul**
**Xizmatlar hajmi**
**1 601,0 mlrd so‘m**

**O‘sish sur’ati**
**103,4 %**

**Ulushi**
**23,4 %**

***2023- yil yanvar-iyul*** ***Dastlabki ma'lumotlar***

2023- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'I, **74,7** % ini tashkil etdi.

## Savdo xizmatlari tarkibi

*(2023- yil yanvar-iyul oylarida)*

**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**








**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo ulushi **74,9** %ga yetgan.

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma'lumotlar*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2023- yil yanvar-iyul oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1 572,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1206,0** mrd so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **22,9** % ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **21,0** %ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **366,6** mlrd so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **127,8** %ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **121,8** % ga yetgan.



***2023- yil yanvar-iyul*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,5** %ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko‘ra, sug‘urta xizmatlarining ulushi **7,9** % darajada qayd etildi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

*(2023- yil yanvar-iyul oylarida)*




***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **90,6** %ini sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug‘urta xizmatlarining ulushi **6,1 %**ga to‘g‘ri kelgan.

***2023- yil yanvar-iyul*** ***Dastlabki ma’lumotlar***

Info

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi, katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

*(2023- yil yanvar-iyul oylarida)*

**2022- y. yanvar-iyul**

**300,6 мlrd so‘m**

**121,8 %**

**5,2 %**

**Xizmatlar hajmi**

**O‘sish sur’ati**

**Jami hajmdagi ulushi**

**Hajmning o‘sishi**

**79,9 mlrd so‘mga**

**2023- y. yanvar-iyul**

**380,5 мlrd so‘m**

**124,8 %**

**5,6 %**

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog‘i, yo‘ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **92,4** % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi




***Taqqoslash uchun:*** 2022- yil yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **91,9** %ga yetgan.

*2023- yil yanvar-iyul* — *Dastlabki ma’lumotlar*

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘ladi.

## Ta’lim sohasidagi xizmatlar

| 2022- y. yanvar-iyul | | 2023- y. yanvar-iyul |
|---|---|---|
| 303,7 mlrd so‘m | Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi | 350,7 mlrd so‘m |
| 101,4 % | O‘sish sur’atlari, % da | 100,1 % |



2023- yil yanvar-iyul oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **350,7** mlrd so‘mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **5,1** % ni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **100,1** %ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **303,7** mlrd so‘mga teng bo‘lgan. 2021- yil yanvar-iyul oylarida nisbatan o‘sish **101,4** % darajasida qayd etilgan.

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma'lumotlar*

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar





| | 2022- y. yanvar-iyul | 2023- y. yanvar-iyul |
|---|---|---|
| Xizmatlar hajmi, mlrd so'm | 167,6 | 221,7 |
| O'sish sur'ati, % da | 115,5 | 102,6 |

2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **54,1** mlrd so'mga ortdi.

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma'lumotlar*

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

**2023- yil yanvar-iyul**

**83,9 %** **16,1 %**



**16,9 %** **83,1 %**

**2022- yil yanvar-iyul**

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

2023- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **83,9** % bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2022- yilda ularning ulushi **83,1** %ni tashkil etgan.

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog‘liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epide-miologiya markazlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

| 2022- y. yanvar-iyul | | 2023- y. yanvar-iyul |
|---|---|---|
| 120,9 mlrd so‘m | Xizmatlar hajmi | 153,5 mlrd so‘m |
| 112,7 % | O‘sish sur’ati | 110,1 % |
| 2,1 % | Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi | 2,2 % |





*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

## Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %da

*(2023- yil yanvar-iyul oylarida)*

| | Umumiy hajmdagi ulushi, % da | O‘sish sur’ati, 2022- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan % da |
|---|---|---|
| **Xorazm viloyati** | **100,0** | **108,7** |
| Urganch shahri | 36,0 | 109,7 |
| *Xiva shahri* | 4,8 | 113,3 |
| *tumanlar:* | | |
| Bog‘ot | 5,8 | 108,4 |
| Gurlan | 5,1 | 107,9 |
| Qo‘shko‘pir | 5,1 | 109,7 |
| Urganch | 7,9 | 109,1 |
| Hazorasp | 7,4 | 110,8 |
| Tuproqqal’a | 2,2 | 108,0 |
| Xonqa | 6,8 | 105,0 |
| Xiva | 5,5 | 106,5 |
| Shovot | 5,2 | 109,0 |
| Yangiariq | 4,4 | 104,0 |
| Yangibozor | 3,8 | 107,6 |

2023- yil yanvar-iyul oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo‘lgan - **36,0** % (2022- yilda **35,8** %). Xizmat ko‘rsatish sohasining eng past ko‘rsatkichi Tuproqqal’a tumanida kuzatilgan – **2,2** %.

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

| Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari *(2023- yil yanvar-iyul oylarida)* | Hajmi, mlrd so‘m | O‘sish sur’ati, %da | |
|---|---|---|---|
| | | 2023- y. | 2022- y. |
| Xorazm viloyati | 6 854,2 | 108,7 | 113,5 |
| Urganch shahar | 2471,5 | 113,4 | 114,7 |
| Xiva shahar | 330,4 | 119,3 | 114,2 |
| *tumanlar:* | | | |
| Bog‘ot | 396,8 | 107,5 | 114,9 |
| Gurlan | 348,6 | 106,6 | 113,9 |
| Qo‘shko‘pir | 349,9 | 109,5 | 114,8 |
| Urganch | 543,2 | 106,2 | 108,3 |
| Hazorasp | 507,7 | 106,9 | 108,8 |
| Tuproqqal’a | 148,7 | 114,7 | 114,9 |
| Xonqa | 468,9 | 107,3 | 114,0 |
| Xiva | 374,0 | 100,5 | 113,6 |
| Shovot | 354,6 | 107,0 | 115,1 |
| Yangiariq | 300,2 | 102,6 | 113,5 |
| Yangibozor | 259,7 | 106,1 | 113,9 |

*[*)] Shahar va tuman bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

*2023- yil yanvar-iyul* *Dastlabki ma’lumotlar*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo‘jalik hududlarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste’molini oshirishni ta’minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**3 488,1 ming so‘m**

**Hajmning o‘sishi**

**516,2 ming so‘mga**

**106,8 %**

**O‘sish sur’ati**



2023- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 488,1** ming so‘mga yetdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o‘sish sur’ati **106,8** %ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 972,0** ming so‘mni tashkil etgan.